

**BUDJETDA XARAJATLARNI NAZORAT QILISH TARTIBINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

***Sabirov Alisher Pulatovich***

*O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada byudjet xarajatlarini sarflanishi va uning samaradorligidan ustidan nazorat amalga oshirilishi ko'rib chiqilgan. Shuningdek hozirgi kunda davlat byudjeti xarajatlarini rejalashtirishda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish istiqbollari muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** Davlat byudjeti, g'aznachilik, moliyaviy nazorat, dasturiy byudjetlashtirish, natijaga yo'naltirilgan byudjet, dastlabki moliyaviy nazorat, xarajatlar smetasi, inspeksiya.

Mamlakat budgetida markazlashtirilayotgan mablag'lar davlat hukumati organlari va hududiy o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, ular hukumat va hududiy hokimiyat organlari tomonidan tegishli funktsiyalar va vazifalarning bajarilishi ta'minlaydi. Davlat budgetining barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning ijtimoiy sohasi holatini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Zamonaviy budgetni barpo etish mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan juda keskin o'zgarishlarni amalga oshirish sharoitida sodir bo'lib, ular o'z navbatida, budgetning oldida turgan birinchi darajali vazifalarni ham aniqlab berdi.

Dunyodagi murakkab va noaniq vaziyat, jahon iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini saqlab kelmoqda. Budget daromadlari va xarajatlarining 2024-yilga mo'ljallangan prognozga ko'ra, iqtisodiy o'sish sur'ati 5,6–5,8 foizni tashkil etadi. 2025–2026 yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlari mos ravishda 6,2 foiz va 6,4 foizgacha oshishi kutilmoqda<sup>1</sup>. 2024-yilgi Davlat budgeti daromadlari, xarajatlari va taqchilligi prognoziga bag'ishlangan. Davlat budgeti daromadlari 270 703 mlrd so'm miqdorida prognoz qilinmoqda. Umumiy soliq yukining kamayishi fonida budgetga soliq va soliqdan tashqari tushumlarning oshishi prognoz qilinmoqda. 2024 yilgi Davlat budgeti xarajatlari 312 921 mlrd so'm miqdorida rejalashtirilgan bo'lib, uning 48,4 foizi ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Budget mablag'larini sarflashning asosiy yo'nalishlariga qo'shimcha ravishda rivojlantirish dasturlari kesimida xarajatlar, shuningdek barqaror rivojlanish milliy maqsadlarini amalga oshirishga xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda bor iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar taqdim etilmoqda. Fiskal barqarorlikni ta'minlash maqsadida budget taqchilligini kamaytirish

<sup>1</sup> <https://openbudget.uz/api/v2/info/file/fcd09effa11433f5ffd31bcc73167fe0>

o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan fiskal siyosatning maqsadlaridan biri bo‘lib qolmoqda. 2024 yilda Konsolidatsiyalashgan budget taqchilligi 52,6 trln so‘m yoki YaIMga nisbatan 4 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda, kelgusi ikki yilga mo‘ljallangan budget mo‘ljallarida esa uning YaIMga nisbatan 3 foizgacha qisqarishi ko‘zda tutilgan.


Bugungi kunda bizning mamlakatda moliyaviy nazorat, mustaqil audit, buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil maxsus iqtisodiy fanning alohida segmentlari hisoblanadi. Bularning har biri o‘z predmeti, izlanish usullari va amaliy qo‘llanish sohalariga ega. Shu bilan birga ularning bog‘liqlik jihatlari va oldidagi maqsadning umumiy jabhalari mavjud, ya’ni to‘g‘ri boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun aniq ma’lumotlar berish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llarini aniqlash shular jumlasidandir.

Avvalo, g‘aznachilik orqali davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish haqida so‘z yuritishdan oldin nazorat, moliyaviy nazorat nima ekanligini yaxshi anglab olmoq lozim bo‘ladi.

Nazorat - bu keng tushuncha bo‘lib maxsus kuzatish tizimidan iborat boshqaruv funksiyalarining biridir. Uning asosiy maqsadi ma’lumotlarni taqqoslash, o‘zgarishlarni aniqlash va baholashdan iborat.

Nazorat subyektlari – nazorat funksiyalarini bajaruvchi maxsus tashkilotlardir.

Nazorat obyektlari – moliyaviy-xo‘jalik-tijorat tashkilotlari, birlashmalaridir. Nazoratning uch turi mavjud.



**1-rasm. Nazorat turlari<sup>2</sup>**

<sup>2</sup> B.K.Hamdamov, A.A.Ostonokulov. “Byudjet nazorati” o‘quv qo‘llanma.- T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. 7-b.

Moliyaviy nazorat tizimiga davlat nazorati, idoraviy nazorat va mustaqil audit kiradi.

Davlat nazorati - tuzilmasi bir muncha murakkab bo‘lib, Davlat nazoratining subyektlari moliyaviy nazorat o‘tkazish huquqiga ega Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Markaziy bank va boshqalar kiradi. Nazorat obyektlari bo‘lib multk shaklidan qat’iy nazar barcha korxona va tashkilotlar hisoblanadi.

Idoraviy nazorat – barcha vazirlik va qo‘mitalar boshqaruv tuzilmasiga kiruvchi nazorat va taftish bo‘limlari yoki ichki audit boshqarmalari hisoblanadi. Bu nazorat bo‘g‘inining obyektlariga barcha davlat korxona va tashkilotlari yoki 50 foizdan ortiq aksiyalari davlatga tegishshli aksiyadorlik jamiyatlari kiradi.

Mustaqil audit – mustaqil auditorlik firmalari va nodavlat sektori korxonalari hisoblanadi.

### 1-jadval

#### **Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish bo‘yicha turlari<sup>3</sup>**

<b>Davlat moliyaviy nazorati turlari</b>		
<b>Dastlabki nazorat -</b> moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar g‘aznachilik bo‘linmalari moliya organlari va O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat	<b>Joriy nazorat -</b> moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida g‘aznachilik bo‘linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat	<b>Yakuniy nazorat -</b> moliyaviy operatsiyalar bajarilganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatlari organlar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat


Davlat moliyasini boshqarish, jumladan davlatning moliyaviy resurslarini samarali, oqilona va maqsadli sarflanishini ta’minalash yuzasidan davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan yuqoridagi rasmda keltirilgan moliyaviy nazorat turlaridan foydalaniadi.

Budget ijrosi jarayonida nazorat va taftishning obyektlari moliya organlari, davlat maqsadli jamg‘armalari va budget tashkilotlari hisoblanib, nazorat borasida ular quyidagilarga bo‘linadi:

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksi O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi(O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘RQ-360-sun Qonuni bilan qabul qilingan)ning 173-moddasiga muvofiq muallif tomonidan tayyorlandi.

- a) budjet daromadlari va xarajatlari;
- b) budjet pul mablag‘lari, budjet ssudalari;
- c) hisoblashuvlar bo‘yicha mablag‘lar, aylanma kassa mablag‘lari;
- d) budjet tashkilotlarining daromadlari va xarajatlari;
- e) moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar;
- f) majburiyatlar va moliyaviy natijalar.

Yuqorida keltirilgan obyektlarning 1-3 moliya organlari va davlat maqsadli jamg‘armalariga taalluqli bo‘lib, 4-6 budjet tashkilotlriga taalluqlidir.



**2-rasm. Konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlar ijrosi , trln so'm**

O‘zbekistonning davlat byudjeti va moliyaviy resurslarining boshqarilishi mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. 2022-2023 yillar uchun taqdim etilgan statistik ma'lumotlar ko‘ra, davlat xarajatlarini nazorat qilish tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. davlat byudjetining xarajatlari va turli jamg‘armalarning o‘sishi, shuningdek, muammolar haqida ko‘rib chiqar ekanmiz 2022-yilda O‘zbekiston davlat byudjeti 236,7 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu raqam 281,1 trillion so‘mga yetdi. Bu o‘sish davlat xarajatlarining oshishini va iqtisodiy rivojlanish uchun qo‘srimcha imkoniyatlarni yaratadi. Davlat byudjeti oshishi, ayniqsa, ijtimoiy va iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Davlat maqsadli jamg‘armalari 2022-yilda 38,3 trillion so‘m bo‘lib, 2023 yilda 42,9 trillion so‘mga ko‘tarildi. Bu o‘sish davlat tomonidan maxsus loyihalarga qaratilgan e’tibor va investitsiyalarni ko‘rsatadi. Biroq, ushbu jamg‘armalarning samaradorligini ta’minlash uchun xarajatlar nazoratini yanada kuchaytirish zarur.

O‘zbekistonda tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi 2022 yilda 7,4 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilda bu raqam 16,2 trillion so‘mga yetdi. Bu, albatta,

mamlakat iqtisodiy o’sishiga qaratilgan kuchli strategiyaning belgisi. Biroq, bu moliyaviy resurslarning samarali boshqarilishi uchun kuchli nazorat mexanizmlarini talab qiladi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari 2022 yilda 33,6 trillion so‘m bo‘lib, 2023 yilda 30,5 trillion so‘mga kamaydi. Bu tendensiya, ehtimol, resurslarni yanada samarali ishlatalishga va davlat xarajatlarining oshishiga olib keladi. Ammo, ushbu jarayonni kuzatib borish va nazorat qilish muhimdir.

Tashqi qarz xisobidan davlat dasturlariga xarajatlar 2022 yilda 5,7 trillion so‘m bo‘lib, 2023 yilda 9,3 trillion so‘mga ko‘tarildi. Bu, o‘z navbatida, davlatning tashqi qarzga bo‘lgan bog‘liqligini oshiradi. Shuning uchun, davlat dasturlarini moliyalashtirishda mahalliy manbalar va resurslardan foydalanishni ko‘paytirish lozim.

Xarajatlar nazoratini kuchaytirish, shaffoflik va javobgarlikni oshirish uchun yangi mexanizmlar ishlab chiqish zarur.

Davlat maqsadli jamg‘armalaridan foydalanishda samaradorlikni oshirish, loyihalarning natijalarini kuzatib borish va baholash muhimdir.

Tashqi qarzga bo‘lgan bog‘liqlikni kamaytirish uchun mahalliy investitsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash zarur.

O‘zbekistonning byudjet xarajatlarini nazorat qilish tizimini takomillashtirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Davlat byudjeti va jamg‘armalaridagi o‘zgarishlar, shuningdek, tashqi qarzning oshishi, yanada ehtiyotkorlik bilan boshqarilishini talab etadi. Kelgusida bu jarayonlarning samarali amalga oshirilishi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

## **FOYDANALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdaggi PF–6300-son “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdaggi “2020 — 2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 506-son Qarori.
4. Malikov T.S., Xaydarov N.X., Davlat budgeti. O‘quv qo‘llanma – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007-y.
5. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. Toshkent moliya instituti. – T.: “Noshir”, 2012-y.
6. B.Nurmuhamedova. Davlat budgeti. Darslik. T.: - “Iqtisod-moliya”-2019-y.

7. Robert D. Lee Jr., Ronald W. Johnson. Public Budgeting Systems. 10th edition. USA, 2020-y.
8. В.М.Родионовой. Финансы. М – 2001 й.
9. Л.В.Андреева. Государственные закупки в России: правовое регулирование и меры по его совершенствованию. Монография. М.: - 2019. 232 ст.
10. У.Бурханов. Государственные закупки. – Ташкент: “UzInfoCom”. 2010 г. 156 ст.
11. U.Burxanov, T.Atamurodov. “Davlat xaridi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Tavakkur bo‘stoni-2012. 144 b.
12. Jumaniyozov, I. (2020). ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(5), 1.
13. Jumaniyazov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(2), 1.
14. Jumaniyazov, I. T. (2021). Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 30-37.
15. Jumaniyazov, I., & Xaydarov, A. (2023). The importance of social insurance in social protection. Science and Education, 4(1), 1033–1043. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4941>
16. Inomjon, J. (2023). GENDER BYUDJETLASHTIRISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING O’RNI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 1187-1191.
17. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партиципатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарблиги. Science and Education, 4(2), 1486–1493. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
18. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyazov, I. T. (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O’zbekistonda joriy etish istiqbollari. Science and Education, 4(2), 1509–1516. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5237>
19. Jumaniyazov, I. T. (2019). Evaluation criteria for the efficiency of sovereign funds. Global science and innovations 2019: Central Asia. In International scientific conference.–Nur-Sultan (Kazakhstan) (Vol. 340, pp. 226-229).
20. Jumaniyazov, I. T., & Abdurahmonov, Q. (2023). TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG’ARMASINING BANKLAR FAOLIYATIDAGI ISHTIROKI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 139-146.
21. Asror, A., & Inomjon, J. (2023). O’ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI ISH HAQI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 128-138.
22. I.T.Jumaniyazov, & I.A.Mingboev (2023). Gender budgeting and prospects for its implementation in Uzbekistan. Science and Education, 4 (5), 1518-1523.
23. Turayevich, J. I., & Akmal o’g’li, S. M. (2023). INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG’ARMASINING O’RNI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 147-157.

24. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. *Nonlinear Engineering*, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>
25. Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Jumaniyazov Inomjon To‘raevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Gulomov Ibrokhim Rustam ugli. (2024). Development Of China’s Sovereign Wealth Funds. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2(1), 1–8.
26. Sovereign wealth funds of the Republic of Uzbekistan in the post-pandemic period. (2023). *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 1(2), 355–372. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/73>
27. Mirza Qilichbayevich Sabirov, Ibrokhim Rustam ugli Gulomov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Aybek Nazarbaevich Abdullaev. (2023). Relevance and Application of Compulsory Health Insurance in Republic of Uzbekistan. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(11), 71–76.
28. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Shavkat Bayramovich Babaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). TAX RELATIONS IN BUSINESS ENTITIES PROVIDING NON-STATE EDUCATIONAL SERVICES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 25, 123–134. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/969>
29. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, Shavkat Bayramovich Babaev, & Mirza Qilichbayevich Sabirov. (2024). PROSPECTS OF ORGANIZING RENTAL OPERATIONS IN NON-GOVERNMENT EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(2), 104–114.
30. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). SOME ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF BANKING INNOVATIONS IN THE COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN. *Academia Repository*, 5(03), 31–37. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/662>
31. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. *European Scholar Journal*, 5(3), 5-8.
32. Jumaniyazov Inomjon To‘raevich, Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. *Global Scientific Review*, 26, 46–54.
33. Jumaniyazov Inomjon To‘rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 117–124.

34. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action-Fluctuation and Noise Letters, 2023
35. To‘raevich, J. I., Nazarbaevich, A. A., Qilichbayevich, S. M., & Babaev, S. B. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. Global Scientific Review, 26, 46-54.
36. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund’s expenditure on GDP growth. Science, research, development № 16. Monografiya pokonferencyjna.
37. Oppog‘ov, J. A., & Jumaniyazov, I. T. (2024). Moliya tizimida g‘aznachilik faoliyatini rivojlanish istiqbollari. Science and Education, 5(5), 504–512.
38. Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). METHODOLOGICAL BASIS FOR FORECASTING THE TAX POTENTIAL OF THE RUSSIAN FEDERATION. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 27, 100–107.
39. Abdullaev, A. N., Jumaniyazov, I. T. R., Sabirov, M. Q., & Babaev, S. B. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE PROCESS OF PERSONAL INCOME TAX FORECASTING. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 28, 233-243.
40. ESG PRINCIPLES IN INVESTMENT PROJECTS FINANCED BY SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS. (2024). Ustozlar Uchun, 1(4), 1096-1102.
41. THE SOCIAL IMPORTANCE OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. (2024). Ustozlar Uchun, 1(4), 1028-1034.
42. TARGETED PLANNING OF BUDGET EXPENDITURES AND IMPACT ON SOCIAL POLICY. (2024). Ustozlar Uchun, 1(4), 1442-1444.
43. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINING AHAMIYATI. (2024). Ustozlar Uchun, 1(4), 1418-1422.
44. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH. (2024). Ustozlar Uchun, 1(4), 1428-1432.
45. Xamro o‘g‘li, Y. R., & Turayevich, J. I. (2024). ISHSIZLIK DARAJASI, UNING TURLARI VA UNI BARQARORLASHTIRISHNING YOLLARI. Ustozlar uchun, 1(4), 767-771.